

QADIMGI HINDISTONDA DINSHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**SHDPI 1-KURS TALABASI **Nazarova Gulshan**SHDPI 1-KURS TALABASI **Panjiyeva Mavjuda**

ANNOTATSIYA: Quyidagi maqolada qadimgi Hindistonda dinning vujudga kelishi, uning insonlar hayotida tutgan o'rni, diniy e'tiqodlari xudolari yani Indra, Deus, Varuna, Asura, Ariman, Vayu, Yama va boshqa xudolar haqida va ularga sig'inishi haqida malumot beriladi.

Kalit so'zlar: Veda, Rigveda, Budda, Gaye, Sudjota, Sitharta, Mogaxadxi, Indra, Vayu.

Kirish. Qadimgi Hindistonda juda ko'p urug', qabila va elatlar yashaganlar. Ularning xo'jaligi, turmush tarzi har xil bo'lganligi uchun diniy e'tiqodlari ham turlicha bo'lgan. Hindistonda yashagan aholi ko'p zamonlar tabiat hodisalariga ajdodlar ruhiga tog'- toshlarga, hayvonlarga suv va daraxtlarga sig'inish uzoq davom etgan. Ularda oy, quyosh va olovga sig'inish keng tarqalgan edi. Hindlarda Agni olov, Indra momaqaldiroq, Aditinani esa hosildorlik xudosi deb bilgan. Hindistonda diniy e'tiqodlarning kelib chiqishi ham boshqa xalqlar kabi ularning turmush tarzi va xo'jaligiga bog'liq bo'lgan.

Muhokama: Budda o'zining ta'limotini shimoliy Gangadagi Koshala va Magadxa podshohliklarida olib borgan. Budda 80 yoshida olamdan o'tgan (486 yoki 473yil). Budda bu – bir necha bor qayta tug'ilishlar jarayonida tirilmoq haqiqatga yetishgan va buddizmga diniy najot yo'lini ko'rsatishga qodir zot. Rivoyatlarga ko'ra, Gautamonida, kalilavastu podshohining xotini Maxamayya ilohiy homiladorlikdan tug'gan. Dunyoga kelgan farzand oyoqqa darhol turib, yettita qadam tashlab, shu zahotiyoyoq men barcha jonli maxluqlarning eng buyugiman. Bu mening oxirgi tug'ilishim deb xitob qiladi; beshinchi kuni bazm o'tkazilib, marosimda bolaga Sidd Xartxa nomi berilgan. podshoh o'g'lini orzu-havaslarida tarbiyalab, uni hyech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxartxa ulg'ayib, qo'shni hukmdorlaridan birining qizi Yamadxaraga uylanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi. Kunlardan bir kuni hyech bir qiyinchilik va namchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxartxa, ittifoqo bir kekxa chol, bir bemor hamda og'ir mashaqqat tortayotgan rohibni uchratadi. Bir kishining esa vafotiga guvoh bo'ladi. Bundan qattiq ta'sirlangan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini izlash uchun saroyini tashlab ketadi. Kunlardan bir kun Siddxartxa, bu vaqtda u 36 yoshda edi, Gaye shahrida Binibisora mulkining Mogaxadxi podshohligidan o'tadi. Sudjota ismli bir kambag'al qiz unga suv va ovqat beradi. U o'shanda beshta rohib bilan yo'lga chiqib, ulardan ajralgan edi, shuning uchun Siddxartxa bir narsaga amin bo'ldi: bu bir o'zi kezib chiqishga ahd qilgani uchun ulardan ajralgan edi, u bu ishlarni insoniyatni azob-uqubatdan qutqarish sari olib bormaydi deb o'ylaydi.[1] Qadimgi Hindistonda juda ko'p urug' qabila va elatlar yashagan. Ularning xo'jaligi, turmush tarzi har xil bo'lganligi uchun diniy e'tiqodlari ham turlicha bo'lgan. Hindistonda yashagan aholi hayotida tabiat hodisalariga, ajdodlari ruhiga, tog'-toshlarga, hayvonlarga, suv va daraxtlarga sig'inish uzoq davom etgan. Ularda oy, quyosh va olovga sig'inish keng tarqalgan edi. Hindlar Agni olov, Indra momaqaldiroq, Aditinani esa hosildorlik xudosi deb ilganlar. Hindistonda diniy e'tarzi va xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan. Davlatlar vujudga kelishi munosabati bilan Hindistonning ko'p joylarida braxman dini keng yoyilgan. Bu din m.av. IX -V III asrda vujudga kelib, uning xudosi Braxma bo'lgan. Bu dinning ruhoniylari braxmanlar deyilgan.[2]

Natija: Hindiston ko'plab diniy e'tiqodlar va urf-odatlariga ega. Hindistonda amalda bo'lgan eng yirik va eng mashhur dinlardan ba'zilar hinduizm, buddizm, sikhizm, islom, nasroniylik va jaynizmni o'z ichiga oladi. Hinduizm Hindistondagi eng qadimiy din bo'lib, Hindiston fuqarolarining aksariyati bu dinga amal qiladi. Hind e'tiqodlari karma, reenkarnasyon va dxarma atrofida markazlashgan. Hindlar ko'plab xudolar va ma'budalarga sig'inadilar va yagona ilohiy mavjudotlar Brahmaga e'tiqod

qiladilar. Islom Hindistondagi uchinchi yirik din bo'lib, mamlakatda 200 milliondan ortiq musulmon yashaydi. Musulmonlar yagona Xudoga ishonadilar va Qur'on ta'limotlariga va Muhammad payg'ambarning hayotiga amal qiladilar. Islomning besh ustuni: namoz, ro'za, zakot (zakot), haj (ziyosat) va shahodat (iymonni e'lon qilish). xristianlik Hindistonga birinchi asrda havoriy Tomas tomonidan olib kelingan. Bu Hindistondagi to'rtinchi eng katta din bo'lib, unga 20 millionga yaqin kishi amal qiladi.[3] Hinduizm asosini qadimgi Hindistonning arxaik e'tiqodlari daraxtlar, tog', suv havzalari, ilon, sigir va maymun kabilarga

sig'inish tashkil etadi. Hozirgi kunda ham hinduizm, qadimgi davrdan boshlab ma'buda onaga sig'inish katta rol o'ynaydi. Hinduizm bosh yaratuvchi — xudo g'oyasi mavjud. Bu xudo Vishna bo'lib, u hayvonlar sirtlon, baliq, toshbaqalar yoki insonlar odatda qora tanli podsho, yoki cho'pon (krishnalar) qiyofalarida namoyon bo'ladi. Vishna boshqa kichik xudolar timsoliga kirishi mumkin. Vishna odatda podsho tojida, ba'zida dunyo iloniday yastanib yotgan holda tasvirlanadi. Boshqa hinduistlar bosh xudo deb sopol parchalarini osgan as-ke (davrish) yoki raqqos qiyofasida ifodalanadigan Shivani hisoblaydilar. Shivaga ko'pincha unga bag'ishlangan muqaddas ho'kiz hamkorlik qiladi. Qadimgi davr oxiri va hozirgi kunlarda hinduistlar Vishna va Shivaga e'tiqod qiluvchilarga bo'linadi. Hinduistlarning muqaddas matnlari vedalar hisoblanadi. Vedalarda xudolar — osmon xudolari, quyosh xudolari, havo xudolari, yer xudolari, ayol xudolari kabi xudolar toifasi haqida madhiyalar bayon etilgan. Osmon xudolari, ular Deus, Varuna, Indra kabi turli osmonlarni boshqarib turuvchi xudolar kiradi. Biroq Varuna keyinchalik suv va dengiz xudosi aylanib ketgan. Varuna bu, birinchidan, podshoh. Dunyoning tabiiyiligini to'g'ri taqsimlatgan, ya'ni kun tutilishini almashtiradi, fasllar bir-birining orqasidan to'g'ri taqsimlangan. Odamzod rishaga moslab hayot kechiradi. Risha Varunaga bog'langan. Varuna faqatgina Indraga yo'l ochib beradi, boshqa xudolardan farq qiladi. Uni Asura deb nomlaydilar. Qadimgi odamlar, kishilar, o'simliklarning oy bilan o'stiradigan, Soma bu o'simliklar xudosi edi. Varuna undan ham yuqori edi. Gunohlarni yuvish uchun, boshlariga to'ruva xamani osib, ustiga kul tashlab, xudo, ya'ni Varunadan iltijo qilib gunohlarini kechirishini so'ragan. Agar u kechirmasa, biron-bir kasalga chalingan, shu bilan Varuna hech bir gunohlarni aybsiz qoldirmagan. Ana shunday qilib jazolangan. Varuna o'zining ana shundayligi bilan yaratuvchi xudo deb nom olgan. Ikki shaxs dunyoning chekkasida borib, bir-birlari bilan kelishmay qolganda ham o'sha yerda uchinchi shaxs Varuna bo'lgan.[4]

Xulosa: Qadimgi Hindistonda juda ko'p urug' qabila va elatlar yashagan. Ularning xo'jaligi, turmush tarzi har xil boiganligi uchun diniy e'tiqodlari ham turlicha boigan Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki Qadimgi Hindistonda ko'plab dinlar mavjud bo'lgan. Hindistonning qadimgi dinlariga tarixiy jihatdan nazar tashlaydigan bo'lsak qadimdan mavjud bo'lgan dinlar nafaqat avval balki hozirgi zamonda ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Bu dinlarning urf-odati, marosimlari, bayram kunlari hind aholisi o'rtasida amal qilinmoqda. Qadimgi dinlar nafaqat Hindistonda balki boshqa hududlarda ham keng tarqalgan. Bunga misol tariqasida hozirgi kunda dunyoviy dinga aylanib ulgurgan Buddaviylik dinidir. Bu dinga hozirgi kunda 500 milliondan ortiq odamlar e'tiqod qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuliye Mirshod Hamza o'g'li Buxoro 2018 (28-34)-betlar
2. Gulrux Ashurova maqolasi
3. Sulaymon Haydarov 2020 (192-198)-betlar
4. Abdijabbor Kabirov Qadimgi sharq tarixi Toshkent 2016 (283-284)

6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).